

**O‘ZBEKISTONDA TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH
TENDENSIYALARI.**

Rasulova Shaxnoza Xatamovna

Farg‘ona davlat texnika universiteti, Iqtisodiyot kafedراسي assistenti,

e-mail: shaxnoza.rasulova@fstu.uz, tel: +998 97 504 08 80.

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.02.2026

Revised: 19.02.2026

Accepted: 20.02.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*to‘qimachilik sanoati,
tikuv-trikotaj, sanoat
siyosati, eksport
salohiyati, klaster tizimi,
investitsiyalar, yuqori
qo‘shilgan qiymat,
raqobatbardoshlik,
sanoat
modernizatsiyasi,
iqtisodiy islohotlar*

Mazkur maqolada O‘zbekistonda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish tendensiyalari, ishlab chiqarish hamda eksport hajmlarining dinamikasi, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va investitsion faolligi tahlil qilingan. Tadqiqotda 2017–2024 yillar davomida “O‘zbekto‘qimachilik sanoati” uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyati, mahsulot turlari bo‘yicha ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlarining o‘sish sur‘atlari statistik ma‘lumotlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, pandemiya sharoiti, global geosiyosiy jarayonlar, logistika muammolari va xomashyo narxlarining o‘zgaruvchanligi kabi omillarning tarmoq rivojiga ta‘siri yoritilgan. Maqolada tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, PQ-4186-son qarori asosida amalga oshirilgan islohotlar, soliq va bojxona imtiyozlari hamda klaster tizimining joriy etilishi natijalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoatida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining ortishi, eksport geografiasining kengayishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi orqali milliy iqtisodiyot barqarorligiga sezilarli hissa qo‘shilayotganini

ko'rsatadi

Xorij bozorlari talablariga javob beradigan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishda korxonada mahsulot assortimentini kengaytirish, yangi texnika va texnologiyani joriy etish hisobiga jahon bozorida raqobatlasha oladigan eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish masalalarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-son qarori muhim ahamiyatga ega. Mazkur qarorga asosan "Respublikada ishlab chiqariladigan paxta ip-kalavalarning butun hajmini qayta ishlash hisobiga 2025-yilga borib to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini \$7 mlrdga yetkazishni ko'zda tutildi, shuningdek kompleks yondashuv asosida xom ashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulotni, shu jumladan, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hamda qo'llab-quvvatlash asosida ishlab chiqarish va eksport qilish, to'qimachilik mahsulotlarini sotishning ichki va tashqi bozorlarini tadqiq qilish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, qo'shimcha qiymat yaratishning yagona zanjirini tuzish bilan bog'liq masalalar ham ilgari surildi. Natijada, 2026-yilda 940 ming tonna kalava ipi, 1425,9 mln. m² tayyor ip gazlama, 406,8 ming tonna trikotaj matosi, 1519,6 mln. dona trikotaj mahsulotlari, 429 mln. juft paypoq mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tayyor mahsulot turlarini 2020-yilga nisbatan 4,7 marta, ip gazlamalari 4,4 marta, trikotaj buyumlari 5,2 marta, paypoq mahsulotlari 2,5 marta, tayyor tikuvchilik mahsulotlari 3,9 marta o'sishiga erishiladi"[1, 3].

Hozirda to'qimachilik sanoati tarmog'ini rivojlantirishning yana bir muhim omili bu raqobatbardosh va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali respublikamizning valyuta zahiralarni to'ldiruvchi va boyituvchi tarmoqlardan biriga aylantirishdir.

To'qimachilik sanoati keyingi yillarda O'zbekiston milliy iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmog'iga, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va mahsulot eksport qilish bo'yicha yetakchiga aylandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida to'qimachilik sanoatning o'ri sezilarli darajada oshdi: uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,8 foizni, sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 14,8 foizni, nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida 44 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bugungi kunda soha korxonalarida 500 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda.

To'qimachilik sanoati O'zbekiston uchun eng istiqbolli va faol rivojlanayotgan sohalardan biridir. Ushbu soha barcha hududlarimizda keng tarqalgan va aholini eng ko'p band qilgan salohiyatli sanoat tarmog'i hisoblanadi. So'nggi yillarda investitsiyalar va yangi texnologiyalar faol jalb etilgani tufayli sohada natijadorlik jadal oshgan. Masalan, 2017-2023 yillarda "O'zbekto'qimachi" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi keskin ko'paygan (1-jadval).

1-jadval

“O'zbekto'qimachi” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining ishlab chiqarish hajmining o'zgarish dinamikasi.

Yillar Ko'rsatkich	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ishlab chiqarish hajmi, trln.so'm	23	33	39	47	66	80	95	123
O'sish sur'ati, %		43	18	21	40	21	19	30

O'rganilgan 2017-2024 yillar davomida O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning notekis o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, 2017-yilda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning innovatsion xarakterdagi rivojlanish jarayoni, sanoatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgartirishlar sababli, 2018-yilda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 43 foizga teng bo'lgan. Bir necha yillar davom etgan pandemiya jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Turli mamlakatlarda pandemiya oqibatida paxta narxining pasayishi, eksport va import hajmining pasayishi, yetkazib berish zanjirining uzilishi va ishlab chiqarishni to'xtatilishiga olib keldi. Koronavirus tarqalishiga qarshi kurashish uchun favqulodda choralarni ko'rishga majbur bo'lindi. Mazkur jarayonlar O'zbekiston to'qimachilik sanoatini ham cheklab o'tmadi. Shu sababli 2019 va 2020 yillardagi o'sish sur'ati avvalgi davrga nisbatan pasaydi. Pandemiyaning respublika iqtisodiyotiga ta'sirini kamaytirish maqsadida eng avvalo hududlarda yangi korxonalarini tashkil etish, aholini ish bilan ta'minlash hamda ularning real daromadlarini oshirish sanoat oldidagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Ishlab chiqarishda uzilishlarni

kamaytirish maqsadida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yagona va uzluksiz o‘zaro bog‘liq zanjirini ifoda etuvchi klasterlarni tashkil etish bilan bog‘liq asoslar yaratildi. Ushbu holat, yangi tizimning yaratilishi sababli to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o‘shishi 40 foizni tashkil etdi. So‘nggi 2 yilda esa to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning oldingi davrga nisbatan pasayish tendensiyasi kuzatildi. Mazkur qiyin vaziyatning yuzaga kelishida quyidagi asosiy omillar muhim rol o‘ynadi: birinchidan, jahon bozorida paxta xom ashyosi narxlarining yuqori darajada o‘zgaruvchanlik va prognoz qilinmaslik xususiyatiga ega bo‘lishi; ikkinchidan, global va mintaqaviy darajadagi geosiyosiy jarayonlar, mojarolar, iqtisodiy sanksiyalar va cheklovlar; uchinchidan, to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilish bilan bog‘liq logistika muammolari, transport xarajatlarining oshishi, bojxona to‘siqlar va xalqaro bozorga kirish qiyinchiliklarining bevosita salbiy ta‘siri.

2-jadval

“O‘zbekto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining mahsulot turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o‘zgarish dinamikasi

Ttt/r	Yillar Mahsulot turi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O‘zgarish, barobar
1	Kalava ip, ming tonna	393	403.7	583	825.3	778	906	932	971	2.5
2	Gazlama, mln kvadrat metr	364	302.6	533	1055.6	705	814	930	1210	3.3
3	Trikotaj mato	59	69.9	60	188.8	160	242	276	312	5.3
4	Trikotaj-tikuvchilik mahsuloti	273	452.3	319	1528.8	1623	2324	2700	3109	11.4
5	Paypoq	63	102	117	447.3	400	462	472	483	7.1

2017-2024 yillarda ip ishlab chiqarish hajmi 2,5 baravar (2017-yilda 393 ming tonnadan 2024-yilda 971 ming tonnagacha), gazlamalar 3,3 marta (364 dan 1210 million kvadrat metrgacha), trikotaj matolar 5,3 baravar (59 dan 312 ming tonnagacha), tikuvchilik va trikotaj buyumlari 11.4 baravar (273 dan 3109 million donagacha), paypoq mahsulotlari 7.1 baravar (63 dan 483 million juftgacha oshgan).

To‘qimachilik sanoatining ishlab chiqarish hajmida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarning ulushi 27% dan 54% gacha yetdi. Korxonalar soni 9.4 mingdan 12,1 minggacha 29 foizga ko‘paydi. Investitsiyalar hajmi 518 million dollardan 2097 mln. dollargacha oshdi, 6 yil ichida 6,7 milliard dollar sarmoya jalb qilindi.

Bugungi kunda mamlakatda 2500 mingdan ziyod to‘qimachilik korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu o‘z navbatida barcha viloyatlar iqtisodiy ko‘rsatkichlarining yaxshilanishini, xususan, eksport va investitsion salohiyatining oshishini, yangi ish o‘rinlarining yaratilishini kambag‘allikning qisqarishini ta‘minlamoqda. Eng asosiysi, ushbu loyihalar chekka tumanlarga investitsiyalar, yangi bilimlar, texnologiyalar olib kirmoqda.

Ushbu davrda sanoatda band bo‘lganlar soni 162 mingdan 250 minggacha, ya‘ni 1,5 baravar ko‘paydi, YaIMdagi ulush 2,3 foizdan 2,6 foizga oshdi.

2017 yildan buyon eksport 2,8 baravar ya‘ni 1,1 milliard dollardan 3,1 milliard dollargacha ko‘paydi.

2017-2024 yillar davomida eksport hajmining o‘zgarishini quyidagi jadval ma‘lumotlari asosida o‘rganildi (3-jadval).

3-jadval

“O‘zbekto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining mahsulot turlari bo‘yicha eksport hajmining o‘zgarish dinamikasi (mln. dollar)

№	Mahsulot turi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O‘zgarish, barobar
1	Ip kalava	631	725.7	878.0	1106.3	1360.7	1500	1202	1200	1.9
2	Gazlama	57	70.1	83.5	126.9	164.3	175	210	157	2.8
3	Trikotaj mato	50	60.5	76.2	133.7	213.9	308	308	279	5.6
4	Trikotaj-tikuvchilik mahsuloti	335	415.4	477.7	816.6	1146	1200	1250	1203	3.6
5	Paypoq							61	41	0.7

O'rganilgan 8 yil davomida mahsulot turlari bo'yicha eksporti ham ko'paydi, xususan, ip 1,9 marta (631 million dollardan 1200 million dollargacha), gazlamalar 2,8 baravar (57 million dollardan 157 million dollargacha), trikotaj mato 5,6 baravar (50 million dollardan 279 million dollargacha), tikuvchilik va trikotaj buyumlari 3,6 baravar (335 million dollardan 1203 million dollargacha) oshdi. O'sish tendensiyasi o'rganilganda eksport bo'yicha o'sish darajasi 2020 va 2021 yillarda yuqori bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Buning asosiy sabablari sifatida O'zto'qimachilik uyushmasi tomonidan Yevropa ittifoqiga benefitsiar sifatida berilgan arizaga ko'ra O'zbekiston to'qimachilik sanoatiga GEP preferensiyalarining berilganligi, buning natijasida 3200 ta mahsulot turiga Yevropa bozorlariga kirish uchun bojxona to'lovlarining 4-12 foizgacha kamaytirilganligi, hamda 1000 dan ortiq to'qimachilik korxonalarida ISO 9001 va energiya tejamkorligini ko'zda tutuvchi ISO-50001 standartlarining joriy qilinganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, to'qimachilik sanoati eksport salohiyatining yaxshilanishiga O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2016-yil 21 dekabrda qabul qilingan "2017-2019 yillarda to'qimachilik trikotaj sanoatini rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq bir qator imtiyozlarning berilganligi, ya'ni foyda solig'i, mulk solig'idan, import qilinadigan asbob va uskunalariga bojxona to'lovlaridan ozod qilinishi ham ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston to'qimachilik korxonalar tomonidan 2023-yilda 8 milliard 200 million dollarlik to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,2 baravar ko'pdir. 2023-yil yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu umumiy savdo hajmining 12,5 foizini tashkil qildi. Yildan yilga soha takomillashib, boshqa davlatlar bilan hamkorlik ham rivojlanib bormoqda. Bu yil yana uchta yangi bozorlarga chiqilib, eksport geografiyasi 83 ta davlatga yetdi.

Umuman olganda yuqoridagi ijobiy natijalarga erishishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son, "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son, "To'qimachilik sanoatini moliyaviy qo'llab quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi 2023-yil 2-sentyabrdagi PF-155-son, "Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab quvvatlash,

=====

to'qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish to'g'risida"gi 2023-yil 10-yanvardagi PF 2-son, "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu hujjatlarning barchasi strategik ahamiyatga ega bo'lgan to'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida mahalliy hokimiyat organlari, tashqi ishlar vazirligi, investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ko'magida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan 2023-yilda umumiy qiymati 730,3 mln.dollar bo'lgan 78 ta yirik loyiha amalga oshirildi. Natijada 23 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi va 265,7 million dollarlik eksport salohiyati yaratildi. Shuni ta'kidlash kerakki, 60 dan ortiq loyihalar asosan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan, shu jumladan 32,5 ming tonna trikotaj mato, 62,4 million kvadrat metr ip va 120,3 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari, 14,0 million juft paypoq ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlar yaratilgan.

Xususan, Shahrixon tumanidagi "Zamon teks" MCHJ (4 ming tonna paxta matolarini ishlab chiqarish va bo'yash, 500 ta ish o'rni), Dehqonobod tumanidagi "Dekhanobod to'qimachilik" MCHJ (8,0 mln tikuv-trikotaj birliklari, 300 ta ish o'rni), "Nome Textile NT" Namangan viloyati (1,0 mln tikuvchilik buyumlari, 610 ish o'rni), Termiz shahridagi "Indenim to'qimachilik" mas'uliyati cheklangan jamiyati (4,0 mln tikuvchilik buyumlari, 200 ish o'rni), Parkent tumanidagi "Shabnam Elegant" mas'uliyati cheklangan jamiyati (4,0 mln tikuvchilik va trikotaj buyumlari, 150 ish o'rni) va boshqa loyihalar chekka hududlarda amalga oshirildi.


2024-yilda umumiy qiymati 1074,0 million dollar bo'lgan 80 ta yirik to'qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoati loyihalarini amalga oshirish natijasida 22 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari va 388,8 million dollarlik qo'shimcha eksport salohiyati yaratilgan. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokida 534,3 million dollarlik 47 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Hududlar bo'yicha Andijon viloyatida 16 ta, Farg'ona viloyatida 16 ta, Toshkent viloyatida 9 ta, Namangan viloyatida 8 ta, Buxoro viloyatida 5 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4 ta yirik to'qimachilik loyihalari rejalashtirilgan va amalga oshirildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston qo'shni mamlakatlarda yirik xomashyo bazasi va juda katta

bozorga ega. Shu sababdan kuchli to‘qimachilik va tikuvchilik sektorini shakllantirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biridir. Yangi O‘zbekiston strategiyasiga muvofiq 2026-yilga kelib to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarishni 2 barobar oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida ichki va jahon bozorida xaridorgir bo‘lgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hamda yarim fabrikatlar, jumladan, bo‘yalgan ip, mato, ishlov berilgan teri, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal va attorlik-charm buyumlari ishlab chiqarish hisobidan to‘qimachilik hamda charm-poyabzal sanoati tuzilmasini yanada yaxshilash ham ko‘zda tutilgan.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlash maqsadida 2024-yilning 1-mayida PF-71- son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni e‘lon qilindi. Farmonga ko‘ra gazlama, trikotaj mato ishlab chiqarish va bo‘yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy hamda moliyaviy shart-sharoitlar yaratish asosida ip-kalavani qayta ishlash darajasini 2027-yil yakunigacha 100 foizga olib chiqish, xalqaro darajada tan olingan kamida 10 ta mahalliy brendlarini yaratish ustidagi ishlarni manzilli tashkil etish belgilandi. Shuningdek, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan ro‘yxat bo‘yicha import qilinadigan xomashyo va boshqa materiallar, butlovchilar va ehtiyot qismlar 2027-yil 1-yanvargacha bojxona bojidan ozod qilinadi. 2026-yil 1-yanvargacha to‘qimachilik sanoat zonalari direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlardan ozod etiladi. 2024-yil 1-maydan 2026-yil 1-maygacha “A” va undan yuqori toifadagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj yo‘nalishidagi tadbirkorlarda soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, QQS summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) 1 kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi.

2026-yil 1-yanvargacha to‘qimachilik sanoat zonalari direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlardan ozod etiladi. Shunga muvofiq, “O‘zbekto‘qimachi uyushmasi chet ellik yetakchi sheriklar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangilarini tashkil etish bo‘yicha bir qator loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.



1-rasm. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati tarmoqlarining 2015-2030-yillardagi rivojlanish istiqbollari (Sanoat mahsulotini ishlab chiqarish) mlrd.so'm.

Mamlakatimizda sohadagi iqtisodiy islohatlar va kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorligi natijasida yildan yilga ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining miqdori oshib bormoqda (1- rasm).

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, agar 2015-yilda 3015,6 2020-yilda 6781,6 mlrd.so'mlik to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqilgan bo'lsa, 2025-yilda 14490,8 va 2030-yilda 31097,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarish prognoz qilinmoqda. Bu 2030-yilda 2015-yilga nisbatan 10.3 barobar ko'p demakdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati so'nggi yillarda izchil va barqaror rivojlanish bosqichiga o'tgan. Tarmoqda ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, eksport geografiasining kengayishi hamda yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushining ortishi iqtisodiy islohotlarning amaliy samarasini namoyon etmoqda. Klaster tizimining joriy etilishi xomashyoni chuqur qayta ishlash, ichki qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, global bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi, logistika xarajatlari, energiya va xomashyo narxlarining tebranishi tarmoq oldida muayyan xavf va cheklovlarni saqlab qolmoqda. Kelgusida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, branding va marketingni kuchaytirish hamda eksport

diversifikatsiyasini ta'minlash tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, to'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining drayver tarmoqlaridan biri sifatida yuqori eksport salohiyati, bandlikni ta'minlashdagi roli va milliy iqtisodiyot barqarorligiga qo'shayotgan hissasi bilan strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy statistika agentligining ma'lumotlari.

3. Scott, W. (2012, August). The impact technology is having on the accounting profession. In World conference on higher education. Recuperado em (Vol. 15).

4. Rincón-Torres, A. F., Cortés-Cataño, C. F., & Acevedo-Pabón, O. L. (2022). APLICACIÓN DEL WEB SCRAPING Y EL ANÁLISIS AUTOMATIZADO A LOS MERCADOS DE DIVISAS Y DE ACCIONES. Encuentros con semilleros, 3(1 (3)), 8-17.

5. Rasulova, S. X. (2021). ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNI TO'G'RI HISOBGA OLISH ZARURIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 713-718.

6. Расулова, Ш. Х. (2023). Важность данных о движении затрат для повышения эффективности управления предприятием.